

20-Iyun, 2026-yil

JAMILA ERGASHEVANING “QIR USTIDAGI AYOL” ROMANIDA AYOL
RUHIYATI VA ICHKI KECHINMALAR TASVIRI

Mutalibova Muxtaram Abduraxim qizi

Farg‘ona davlat univesiteti filologiya fakulteti:

o‘zbek tili yo‘nalishi 23.85-guruh talabasi

E-mail: mutalibovamuxtaram@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0003-0498-4182>

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “Qir ustidagi ayol” romanida ayol obrazining badiiy talqini, xususan, ayol ruhiyatining murakkab qirralari, ichki kechinmalari va hayotiy ziddiyatlari tahlil qilinadi. Asarda bosh qahramon Nozima obrazi orqali zamonaviy ayolning oiladagi, jamiyatdagi va shaxsiy hayotidagi ruhiy holatlari ochib berilgan. Yozuvchi qahramonning tashqi harakatlaridan ko‘ra uning ichki dunyosiga, qalbidagi iztiroblariga, orzu va armonlariga katta e‘tibor qaratadi. Roman voqealari davomida Nozimaning ona, rafiqqa, kelin va pedagog sifatidagi mas‘uliyatlari o‘rtasida qolishi, o‘zini anglashga intilishi hamda hayotdagi o‘rnini topishga bo‘lgan harakati tasvirlanadi. Uning xarakterida mehrga ehtiyoj, e‘tibor kutish, qadrlanish istagi bilan birga sabrsizlik, norozilik va xatolar ham namoyon bo‘ladi. Shu jihatdan Nozima obrazi mukammal yoki ideal qahramon emas, balki hayotning turli bosimlari ostida yashayotgan oddiy inson sifatida gavdalanadi.*

Kalit so‘zlar: *ayol obrazi, ruhiy kechinma, Nozima obrazi, oila, ichki ziddiyat, qaynona-kelin munosabati, zamonaviy ayol.*

**DESCRIPTION OF THE WOMAN’S PSYCHOLOGY AND INTERNAL
EXPERIENCES IN JAMILA ERGASHEVA’S ROMAN “WOMAN ON THE
RIVER”**

Abstract: *This article analyzes the artistic interpretation of the female character in the novel “The Woman on the Hill” specifically the complex facets of the female psyche, internal experiences, and life conflicts. The work reveals the mental state of a modern woman in the family, society, and personal life through the image of the protagonist, Nozima. The writer pays more attention to the hero’s inner world, his inner suffering, his dreams and aspirations than to his external actions. Throughout the novel’s events, Nazima is described as being caught between her responsibilities as a mother, wife, daughter-in-law, and educator, striving for self-awareness and finding her place in life. In his character, along with the need for love, expectation of attention, and the desire to be appreciated, impatience, dissatisfaction, and mistakes are also manifested. In this regard, the image of Nozima is not a perfect or ideal hero, but an ordinary person living under various pressures of life.*

Keywords: *image of a woman, mental experience, image of Nozima, family, internal conflict, mother-in-law-daughter-in-law relationship, modern woman.*

ИЗОБРАЖЕНИЕ ЖЕНСКОЙ ПСИХОЛОГИИ И ВНУТРЕННИХ ПЕРИЯТИЙ В РОМАБЕ "ЖЕНЩИНА НА КРЫШЕ" ЖАМИЛЫ ЭРГАСНЕВОЙ

Аннотация: *В данной статье анализируется художественная интерпретация женского образа в романе “Женщина на холме” в частности, сложные грани женской психики, внутренние переживания и жизненные противоречия. В произведении через образ главной героини Нозимы раскрывается психологическое состояние современной женщины в семье, обществе и личной жизни. Писатель уделяет больше внимания внутреннему миру героя, его душевным страданиям, мечтам и чаяниям, чем его внешним действиям. В ходе событий романа описывается положение Нозимы между ее обязанностями как матери, жены, невестки и педагога, ее стремление к самореализации и поиску своего места в жизни. В его характере наряду с потребностью в любви, ожиданием внимания, желанием быть оцененным проявляются нетерпение, недовольство и ошибки. С этой точки зрения образ Нозимы воплощается не как совершенная или идеальная героиня, а как обычный человек, живущий под различными давлениями жизни.*

Ключевые слова: *образ женщины, душевное переживание, образ Нозимы, семья, внутренний конфликт, отношения свекрови и невестки, современная женщина.*

Adabiyotda ayol obrazi doimo inson qalbining nozik qirralarini ochib beruvchi muhim obrazlardan biri bo‘lib kelgan. Ayolning oiladagi, jamiyatdagi o‘rni, uning orzulari va ichki kechinmalari badiiy asarlarda turli shakllarda aks etadi. Jamila Ergashevaning “Qir ustidagi ayol” romanida ham ayol ruhiyatining murakkabligi Nozima obrazi orqali yoritiladi. Yozuvchi qahramon hayotidagi oddiy voqealar orqali uning ichki dunyosini, dardlarini va o‘zini anglash jarayonini ko‘rsatadi.

Roman markazidagi Nozima obrazi oddiygina oilaviy hayot kechirayotgan ayol emas, balki ichki kurashlar bilan yashayotgan murakkab xarakter egasidir. U bir tomondan ona, rafiq, kelin sifatidagi vazifalarini bajarishga harakat qilsa, ikkinchi tomondan shaxs sifatida e‘tibor, hurmat va qadrlanishni istaydi. Uning ruhiy holati aynan mana shu ikki tomon o‘rtasidagi ziddiyat orqali namoyon bo‘ladi. Nozimaning eng katta ichki muammolaridan biri o‘zini qadrsiz his qilishidir. U katta xonadonda yashaydi, ko‘plab yumushlarni bajaradi, ammo ko‘pincha mehnati sezilmayotgandek tuyuladi. Qaynonasi Robiya xola yomon inson sifatida emas, balki o‘z qarashlari va hayot tajribasiga ega ayol sifatida tasvirlanadi. Biroq Nozima uning nazorati ostida yashashdan charchaydi va o‘z mustaqilligini istaydi. Qahramon ruhiyatidagi yana bir muhim jihat orzu va imkoniyat o‘rtasidagi farqdir. Nozima chiroyli kiyinishni, o‘ziga vaqt ajratishni, qadrlanishni xohlaydi. Ammo oilaviy mas‘uliyatlar, ro‘zg‘or tashvishlari va atrofdagilarning kutishlari uning

20-Iyun, 2026-yil

istaklarini cheklaydi. Shu sababli uning ichida norozilik, ranjish va tushkunlik paydo bo‘ladi. Asarda Nozimaning ichki kechinmalari uning oilaviy munosabatlarida ham ko‘rinadi. U eri Sardordan mehr va qo‘llab-quvvatlash kutadi, lekin ko‘pincha o‘zini yolg‘iz his qiladi. Ayniqsa, erining onasi fikrini ustun qo‘yishi Nozimada alam va norozilik uyg‘otadi. Bu holat ayol qalbida yig‘ilib boradigan dardlarning sabablaridan biri sifatida tasvirlanadi. Nozima obrazining yana bir jihati uning xatolari orqali insoniy tabiati ochilishidir. U ba‘zan jahli ustida farzandiga ham qattiq munosabatda bo‘ladi. Bu holat uning yomonligi emas, balki ichki bosim va ruhiy charchoq natijasi sifatida ko‘rsatiladi. Yozuvchi ayol qalbida to‘planib qolgan alam qanday qilib uning xatti-harakatlariga ta’sir qilishini ko‘rsatadi.

Robiya xola obrazi esa Nozimaga qarama-qarshi tarzda hayot tajribasi, sabr va matonat timsoli sifatida namoyon bo‘ladi. Ikki ayol o‘rtasidagi farq ikki avlod dunyoqarashini ko‘rsatadi. Biri hayotdan ko‘proq mehr va tushunish kutsa, ikkinchisi mehnat va chidamni asosiy qadriyat deb biladi.

Xulosa qilib aytganda, “Qir ustidagi ayol” romanida ayol ruhiyati chuqur va hayotiy tarzda tasvirlangan. Asar markazidagi Nozima obrazi orqali yozuvchi ayol qalbidagi murakkab kechinmalarni, uning mehrga, e’tiborga va tushunishga bo‘lgan ehtiyojini ochib beradi. Qahramon hayoti orqali ayolning faqatgina oiladagi vazifalari emas, balki uning shaxsiy orzulari, ichki dunyosi va inson sifatidagi qadri ham ko‘rsatiladi. Roman ayol ruhiyatini bir tomonlama emas, balki barcha ziddiyatlari bilan tasvirlaydi. Nozima ba‘zan xato qiladi, ba‘zan hissiyotlariga beriladi, ammo aynan shu jihatlar uni hayotiy va ishonarli obrazga aylantiradi. Robiya xola obrazi bilan qiyoslanganda esa turli avlod ayollarining dunyoqarashi, hayot tajribasi va qadriyatlari o‘rtasidagi farqlar ochiladi. “Qir ustidagi ayol” romani inson qalbining nozik holatlarini, ayniqsa ayol ruhiyatidagi ichki kurashlarni aks ettirgan asarlardan biridir. Asar o‘quvchini ayolni faqat tashqi vazifalari bilan emas, balki uning orzu-istaklari, his-tuyg‘ulari va ruhiy olami bilan tushunishga undaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti.
2. Esin.A.B. Adabiy asarni tahlil qilish tamoyillariva usullari. - 4-nashr.-M., 2002
3. Xudoyberdiyev E. Adabiyotshunoslikka kirish. T.: “Sharq”, 2008
4. D.Quronov, Z.Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik lug’ati. Toshkent. “Akademnashr”. 2013.
5. Umurov.H. “Badiiy psixologizm va hozirgi o‘zbek romanchiligi” – T., Fan, 1983.
6. Abdullyeva.D.S. Adabiyotshunoslikda badiiy psixologizm tushunchasi va masalaning tarixi